XALQ DEPUTATLARI BO‘KA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 9 - mart VI-52-18-10-137-K/22 Bo‘ka tuman hokimligi

Bo’ka tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuniga muvofiq 2022-yil uchun Bo’ka tumanining mahalliy byudjetini qabul qilish bo’yicha Toshkent viloyati Halq deputatlari Bo’ka tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi Qonuni hamda Toshkent viloyati Halq deputatalri Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022-yil uchun Toshkent viloyati mahalliy byudjeti to’g’risida”gi qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022-yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko’rsatkichlari1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman byudjetidan 2022-yilgi byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan harajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjet daromadlar va harajatlari prognoz ko’rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo’l qo’yilmasligi qonunda belgilab qo’yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha tumanda, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig’i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo’llagan holda yer solig’i stavkalari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2022-yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg’armasi hajmlari 1 402 215 ming so’m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2022-yil uchun zaxira jamg’armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy harajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg’armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

10. Yuridik shaxslar bo’yicha mol-mulk soliqlari uchun qo’llaniladigan mutloq miqdorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. 2022-yil uchun tumanning tuman byudjetida yo’l qo’yiladigan eng kam mablag’lar miqdorda 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

12. O’zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashi mahalliy byudjetni boshqarishda, hususan mahalliy byudjet harajatlarini taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularni Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo’yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

13. Qonunga asosan 2022-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to’liq hajmda o’tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to’g’risidagi dekloratsiyaga asosan to’laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

davlat mulki bo’yicha ijara to’lovlaridan tushadigan tushumlar.

qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to’lovchilar tomonidan to’lanadigan qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to’lovlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o’rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i;

aylanmadan soliq;

benzinni, dizel yoqilg’isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig’i.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq mustasno;

Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to’g’risidagi dekloratsiyaga asosan to’lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’idan tashqari) 42 foizi;

foyda solig’idan tushumlarning (O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro’yhatga muvofiq yirik soliq to’lovchilar, O’zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O’zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to’lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to’lanadigan foyda solig’idan tashqari) viloyat mahalliy byudjetiga Qonunga muvofiq ajratma qilinadigan 40 foizi miqdordagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o’rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) Viloyatning viloyat byudjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to’lovlar to’lig’icha o’tkaziladi:

elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to’lovchilar tomonidan to’lanadigan qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig’imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig’imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig’imlar va g’ildirakli transport vositalari, o’ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig’imidan shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o’zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to’lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o’tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo’yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

er uchastkalariga bo’lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag’lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (hususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo’yicha olingan daromadlar.

tuman va shahar darajasida bo’lmagan boshqa daromadlar.

g) tamaki mahsulotlari mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig’i va alkogol maxsuloti, shu jumladan pivo uchun aksiz solig’i bo’yicha tushumlar tegishlicha 2021-yil 1-iyul holatiga ko’ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o’tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o’tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo’lsa, daromadning ushbu turi viloyat

byudjetiga o’tkaziladi.

14. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (Yu.Inoqov), tuman hokimligi Moliya bo’limi (M.Xakberdiev), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (A.Kadirov) va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda:

-tegishli byudjetlarini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar harajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

-mahalliy byudjet prognoz ko’rsatkichlarini o’z vaqtida samarali bajarish;

-byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanish;

-byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va ma’sulyatni yanada kuchaytirish;

-tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’liq tushushini ta’minlash;-byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo’shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Tuman davlat soliq inspektsiyasi (A.Kadirov) O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib;

-soliqlarning to’liq va to’g’ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o’z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

- yer solig’i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo’yicha doimiy tahlillar o’tkazgan holda, soliqlarni to’liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to’lovlari bo’yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rish;

- aylanmadan soliq turi bo’yicha soliq to’lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to’liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o’rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o’tkazish;

Bunda, mazkur yo’nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ’ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig’ining soliq

bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

16.Tuman davlat soliq inspektsiyasi (A.Kadirov), Kadastr agaentligi tuman bo'limi (F.Tojiqulov) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

17. Majburiy ijro byurosi Bo'ka tumani bo'limi (F.Xamdamov) tuman davlat soliq inspektsiyasi (A.Kadirov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

18.Mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi (U.Ergashev), tumandagi Mahalla fuqorolar yig'ini raislari bilan birgalikda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

19. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga va natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

- Mahalliy byudjet harajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

20. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (Yu.Inoqov):

Tuman byudjetining jami harajatlarining 5 foizi hamda shakllangan

qo’shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

-mahalliy byudjetlarning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro’yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi chorak birinchi oyining

10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

- mahalliy byudjet daromad va harajatlarining prognoz ko’rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko’rilgan chora-tadbirlar;

-ajratilgan byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo’yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22.Mazkur qaror “Xalq ovozi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24.Bo’ka tuman hokimligi Axborot xizmati Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari, byudjet shaffofligi hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Halq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha” doimiy

komissiyasi va tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag’allikni qisqartirish masalalari bo’yicha birinchi o’rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими  **Н. Аббосов**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
1-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____»
_____даги _____-
сонли қарорига 1-илова

Бўка туман бюджети даромадларининг 2022 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

(минг сўмда)

№	Даромад турлари	Жами
	Жами даромадлар	**69 917 788**
I.	**Рағбатлантирувчи (Стимулирующие) даромад**	**14 422 310**
1	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	*13 625 558*
2	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	*796 752*
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**34 766 317**
	Туманга бириктирилган	**12 810 893**
1	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 593 533
2	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	8 450 112
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ИТД)	1 565 423
4	Ер ости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ норуда	0
5	Ижара тўловлари	201 825
	Вилоят ва туман бюджети ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**21 955 424**
1	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 006 005

2	Юридик шахслар ер солиғи	8 360 962
3	Бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ (АЗС)	5 987 883
4	Айланмадан солиқ (Ягона солиқ тўлови)	4 296 519
5	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	1 304 055
6	Йиғимлар	
	Вилоят бюджетига	**0**
1	Давлат божлари	
2	Давлат ташкилотлари фойда солиғи	
3	Жарималар	
III.	**Тақсимланувчи даромадлар (формула бўйича)**	**20 729 161**
	Аҳоли сони (минг киши)	*126*
1	Алкоголга акциз солиғи (шу жумладан пиво)	7 845 589
2	Мобил алоқага акциз солиғи	4 469 767
3	Тамаки маҳсулотлари акциз солиғи	8 413 805
	Маълумот учун: 2022 йил параметр	
	ЖАМИ ХАРАЖАТЛАР	**148 634 839**
	ТРАНСФЕРТЛАР	**78 717 051**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
2-ilova
Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____»
_____даги _____-сонли
қарорига 2-илова

Бўка туман бюджетидан 2022 йилги бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган харажатларнинг умумий чекланган миқдорлари

(минг сўмда)

№	Кўрсаткичлар	ЖАМИ
	Бўка туман бўйича харажатлари миқдори, Жами	**148 634 839**
1.	**ИЖТИМОИЙ СОҲА ВА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА ХАРАЖАТЛАР - ЖАМИ**	**111 633 428**
	шу жумладан:	
1.1	Маориф	14 779 448
	- мактабгача таълим	5 269 331
	- умумий таълим	9 510 117
1.2	Соғлиқни сақлаш	52 351 062
1.3	Маданият ва спорт, оммавий ахборот воситалари	4 849 704
	- маданият ва оммавий ахборот воситалари	1 339 756
	- спорт	3 509 948
1.4	Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	39 527 749
1.5	Ижтимоий кўникма марказлари	125 465
2.	**ИҚТИСОДИЁТГА ХАРАЖАТЛАР**	**14 610 537**
	шу жумладан:	
2.1	Фермерлар хўжаликлари бухгалтерия марказлари	908 908
2.2	Ободонлаштириш	9 797 647
2.3	Сув хўжалиги вазирлиги ташкилотлари	2 086 068
2.4	Ветеринария қўмитаси	1 029 196
	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	788 718
3.	**МАРКАЗЛАШТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШГА ХАРАЖАТЛАР**	

4.	**ДАВЛАТ БОШҚАРУВ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**9 883 391**
	шу жумладан:	
4.1	Давлат бошқарув идоралари	9 883 391
5.	**ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**4 094 191**
6.	**ЗАҲИРА ЖАМҒАРМАСИ**	**1 402 215**
7.	**Фуқаролар ташаббуси жамғармаси**	**7 011 077**
	шу жумладан:	
	ЖАМИ ДАРОМАДЛАР	**69 917 788**
	ТРАНСФЕРТ	**78 717 051**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
3-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____»
_____даги _____-сонли
қарорига 3-илова

Бўка туман бюджети даромадларининг 2022 йилдаги умумдавлат солиқларидан ажратмалар меъёрлари

(минг сўмда)

№	Даромад тури	Бўка тумани
I.	**Рағбатлантирувчи (Стимулирующие) даромад**	**14 422 310**
	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	*32 441 804*
	ажратма меъёри	*42*
1.	маҳаллий бюджетга	13 625 558
	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	*1 991 880*
	ажратма меъёри	*40*
2.	маҳаллий бюджетга	796 752
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**34 766 317**
	Туманга бириктирилган	**12 810 893**
2	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ИТД)	1 565 423
3	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	8 450 112
4	Ер ости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ норуда	
5	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 593 533
6	Ижара тўловлари (жисмоний мол-мулк ижарасига)	201 825
	Вилоят ва туман бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**21 955 424**
1	Бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ (АЗС)	5 987 883
	ажратма меъёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	5 987 883
2	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	2 006 005
	ажратма меъёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	2 006 005
3	Юридик шахслар ер солиғи	8 360 962
	ажратма меъёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	8 360 962
4	Айланмадан солиқ (Ягона солиқ тўлови)	8 593 038
	ажратма меъёри	*50*
	маҳаллий бюджетга	4 296 519
5	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	1 304 055
	ажратма меъёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	1 304 055
6	Йиғимлар	
	ажратма меъёри	*100*
	маҳаллий бюджетга	
	Вилоят бюджетига	
1	Давлат божлари	
2	Давлат ташкилотлари фойда солиғи	
3	Жарималар	
III.	**Тақсимланувчи даромадлар (формула бўйича)**	**20 729 161**
	Аҳоли сони (минг киши)	*126*
15.	Алкоголга акциз солиғи (шу жумладан пиво)	7 845 589
16.	Мобил алоқага акциз солиғи	4 469 767
17.	Тамаки маҳсулотлари акциз солиғи	8 413 805
	Маълумот учун: 2022 йил параметр	
	ЖАМИ ХАРАЖАТЛАР	**148 634 839**
	ТРАНСФЕРТЛАР	**78 717 051**

	Жами даромадлар	**69 917 788**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
4-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____» _____даги _____-
сонли қарорига 4-илова

Бўка тумани маҳаллий бюджетларининг 2022 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

(минг сўмда)

Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
Бўка тумани	69 917 788	148 634 839

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
5-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____» _____даги
_____-сонли қарорига 5-илова

Бўка тумани бюджетига 2022 йилда вилоят бюджетидан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

(минг сўмда)

Шаҳар ва туманлар	Сумма
Бўка тумани	78 717 051

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
6-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____»
_____даги _____-
сонли қарорига 6-илова

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар бўйича тумандаги МФЙлар кесимида ер солиғи ставкалари учун 2022 йилда белгиланган коэффициентлар

Т/р	Туман ва шаҳарлар номи	Юридик шахслардан ундириладиган ер солиғи ставкалари, 1 Га учун (минг сўмда)		Жисмоний шахслар бўйича, 1 кв.м учун (сўмда)	
		Коэффициент (0,5 дан 2 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун	Коэффициент (0,5 дан 2 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун

	Бўка тумани	**камайтирувчи**	**оширувчи**	**29 532,0**	**камайтирувчи**	**оширувчи**	**270**
	АЧАМАЙЛИ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	АЧАМАЙЛИ ФАЙЗ БАРАКА МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	БАХМАЛ МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	БЕШКАПА МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	БУКА МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	БУНЁДКОР МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	БУСТОН МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ГУЛИСТОН МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	ДАШТОБОД МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	ДУСТЛИК МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	ЖАГАЛБАЙЛИ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	ЖУРАОБОД МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ИБРАТ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	ИСТИКЛОЛ МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	КАТТА РАВОТ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	КИЙИКЧИ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	КОРАКУДУК МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	КОРАКУЙЛИ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	КУКОРОЛ МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	КУЛДИРОК МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
1	КУЛДОШТЕПА МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	КУЧКОР СУЙГАН МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	КУШТЕПА МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	МАДАНИЯТ МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	МИРЗАБЕК МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	НАВРУЗ МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	НОВОБОД МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ОЛТИШ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	ПАРКЕНТ МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	РАМАДОН МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	РОВОТ МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	САМАРКАНД МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ТОШЛОК МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	УЗБЕК МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	УРТА ТЕПА МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ХУЖАКУРГОН МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	ЧАВЛИСОЙ МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ЧУЛОБОД МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ЯНГИ КУРГОН МФЙ	0,9		26 578,8	0,9		243
	ЯНГИ ХАЁТ МФЙ		1,2	35 438,4		1,2	324
	ЯНГИБОГ МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270
	ЯНГИОБОД МФЙ		1,0	29 532,0		1,0	270

Изоҳ: Шаҳар ва туманлар Кенгашлари томонидан юридик шахслар учун ер солиғи ставкасини маҳалла фуқаролар йиғинлари кесимида туман (шаҳар) марказлари узоқ-яқинлигига қараб, 0,7-3,0 камайтирувчи ва кўпайтирувчи коэффициентларни белгилаш ҳуқуқига эга.

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
7-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____» _____даги
_____-сонли қарорига 7-илова

Юридик шахс бўйича мол-мулк солиғи учун қўлланиладиган мутлоқ миқдорлари

Т/р	Туман номи	Коэффицент (мутлоқ миқдори)	Белгиланган қиймат (сўм)
1	Бўка тумани	1,0	1 000 000,0

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 9 martdagi
VI-52-18-10-137-K/22-son qaroriga
8-ilova

Халқ депутатлари
Бўка туман Кенгашининг
2022 йил «____» _____даги
_____-сонли қарорига 8-илова

2022 йилда Бўка тумани маҳаллий бюджетида йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

(минг сўмда)

Т/р	Туман номи	Миқдор
1	Бўка тумани	1 100 332